

OROLBO'YI MINTAQASIDA EKOLOGIK AHVOLNI YAXSHILASH

Djumanazarova A.T

Tolepova Sh.B

Tayrova A.U

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute

Annotatsiya: *Orol dengizini qurishi sababli Orolbo'yida sho'rlanish jarayoni keskin kuchayishi, bu esa havoda tuz va chang paydo bo'lishiga olib kelishi, ekologik tanglik kuchayishi, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligining pasayishi, cho'llanish jarayoni rivoj olishi va bularning oldini olishda olib borilishi zarur bo'lgan meliorativ tadbirlar tug'risida so'z etiladi.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, chang, tuz, deflyatsiya, inqiroz, yashil iqtisodiyot.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi 41-son qaroriga binoan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha Kontseptsiya qabul qilindi. Kontseptsiyaning maqsadi ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar, shuningdek, «yashil» va tsirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida Orolbo'yi mintaqasini ekologik va gumanitar inqiroz yuz berayotgan hududdan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha kontseptual yo'nalishlar va vazifalarni belgilashdan iborat.

Orol muammosi xalqaro miqyosidagi masala bo'lib qoldi va uni zudlik bilan echish kerakdir. Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik tanglikni o'rmon melioratsiyasi usuli bilan pasaytirish mumkin.

Bugungi kunga kelib Orol dengizining qurib borishi sababli 5 mln gektarga yaqin tubi ochilib qoldi, shundan 700 ming ga maydoni engil tarkibli tuproqlardan iboratdir va ular kuchliroq deflyatsiyaga duchor bo'ladilar. Bu maydon yildan yilga kengayib, suvning ostidan tuzga boy bo'lgan tuproqlar ochilib borayapti.

Orol dengizining qurigan tubidan har yili atmosferaga shamol oqimi bilan birga 72 mln. tonnagacha qum va chang ko'tarilayapti, bu esa Orolbo'yi mintaqasida ekologik tanglikni vujudga keltirmoqda.

Qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan 1 ga yerga bir yilda 520 kg tuz tushmoqda.

Orol muammosi ko'p qirrali, keng masshtabli bo'lib, Respublikamizning ekologik, iqtisodiy, global - tabiiy aspektlarini qamrab olgan. Bu muammolarni faqatgina kompleks hal etish mumkin.

Orolbo'yida yerlarni tubdan meliorativ holatini o'zgartirish lozim, bu ishlar albatta regionning suv tejashga, tuproqni himoyalashga, sho'rlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. O'rmon melioratsiyasi Orol dengizining butun qurigan tubini va Orolbo'yini qamrab olishi kerak.

Ushbu regionda bir paytda tashkiliy, agrotexnik, meliorativ, gidrotexnik va o'rmonshunoslik tadbirlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

To'qay o'rmonlarini qayta tiklash, mavjudlarini sog'lomlashtirish zarur.

O'rmon meliorativ tizim hudud relefida ma'lum to'siqlar yuzaga keltiradi, shamol tezligi pasayadi, tuproq deflyatsiyasi kamayadi, tuproq yuzasidan va o'simliklardan bug'lanish kamayadi va mikroiklimni yuzaga keltiradi.

Ihotazor o'rmonlar hududni o'rmon bilan qoplanganlik darajasini oshiradi, tuproq unumdorligini oshiradi.

Daraxtlar 300 dan ortiq faol kimyoviy moddalar ajratadi, ular tabiiy laboratoriya sifatida ko'plab zararli moddalarni (SO₂, oltinugurt gazi, sulfat gaz va boshqalar) zararsizlantiradi. O'rmon daraxtzorlari kislorod generatorlari va havo sanitarlaridir.

Orolbo'yi ekotizimi dengiz qurishidan katta talofat ko'rdi.

Ayniqsa Orolbo'yi hududidagi cho'l-sahro florasida bu zararli holat yaqqol ko'rinib turibdi.

Orolbo'yi mintaqasidagi barcha qum-sahro o'rmonlari yaylov sifatida foydalaniladi.

Orol dengizini qurishi sababli Orolbo'yida sho'rlanish jarayoni keskin kuchaydi, bu esa havoda tuz va chang paydo bo'lishiga olib keldi, ekologik tanglik kuchaytirdi, mahalliy aholi ichida og'ir kasalliklar tarqalishi ko'paydi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi pasaydi, cho'llanish jarayoni rivoj ola boshladi.

Shu mintaqada yashovchi 50 mln xalqni bir qismi shu ekologik tanglik ta'siriga duch bo'ldi, bu esa bolalar va onalar ulimi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Orol dengizining qurishi oqibatida shunchalik chuqur, keng va qaytarilmaski, bu keng mintaqadagi hamma tirik jonzodga jiddiy havf keltiradi.



1-rasm. Orol dengizi suvidan bo'shagan yerlar.

Amudaryoning quyi xavzasida oxirgi 20 yil ichida qamishzorlar 760 ming gektardan 100 ming gektargacha kamaydi, 60 ga yaqin ko'l quridi, o'rmonlarning maydoni 3 marta qisqardi. Qimmatli xayvonlarning 173 turidan hozirgi vaqtga kelib 38 turi saqlanib qoldi.

Orolning qurigan tubida ham katta maydonlarda yulg'unzorlar, saksovulzorlar yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunda Orolbo'yida birinchi galda 2,5 mln gektar maydonda

oʻrmonmeliorativ tadbirlarni qoʻllash zarurdir. Respublikamizdagi 25 mln ga sahro yaylovlarning yarmi Orolboʻyi mintaqasiga toʻgʻri keladi.

Hozirgi davrda Orolboʻyida 0,5 mln ga koʻchma qumlar mavjud maydonlar bor. Ularni oʻrmonlashtirish qumlar koʻchishini toʻxtatadi. 1,8-2,0 mln ga choʻl yaylovlari yaxshilanishi kerak.

Qoraqalpogʻistonda yer balansi boʻyicha oʻrmon ihotazorlari 100 ga, Xorazm viloyatida 400 ga maydonda oʻsib turibdi. Demak Orolboʻyining oʻrmon tanqisligini hisobga olib, tuproq - iqlim sharoitlarini ogʻirligi sababli oʻrmon bilan qoplanganlik darajasini 8-10 % ga oshirish lozim, bu ekologik tanglikni ancha yumshatadi.

Mahalliy agrolandshaft komponentlarga samarali taʼsir koʻrsatish uchun oʻrmon meliorativ daraxtzorlar, dalalarni, bogʻlarni himoyalovchi oʻrmon ihotazorlar, irrigatsiya shoxobchalari va kanallar boʻylarida daraxtzorlar barpo etish lozim. Ana shundagina ular tabiatni muhofaza etuvchi funktsiyalarini toʻliq bajarishlari lozim.



2-rasm. Orol dengizidagi koʻchma qumlarni oldini olish va oʻrmonlashtirish.

Himoyalovchi oʻrmon ihotazorlari ekologik va biologik mutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Ular koʻpgina qushlar va hayvonot dunyosi vakillari uchun makon hisoblanadi. Orol dengizini qurishi Orolboʻyi mintaqasidagi tuproqlarni shoʻrlanishiga olib keldi.

Koʻpgina daraxt turlari (saksovul, yulgʻun, cherkez, jiyda) ushbu hududdagi himoya oʻrmonzorlarini asosini tashkil etishi kerak.

Oʻzbekistonda hozirda 32,2 ming ga toʻqay oʻrmonlar mavjud, uning 248 ming gektari Qoraqalpogʻistonda, Amudaryo deltasida joylashgan. Ushbu koʻrsatkich 40-50 yil avval 5-6 marta koʻp boʻgan.

Toʻqay oʻrmonlarini bunday kamayib ketishi yer osti suvlarini minerallashuvini oshirdi, koʻp yerlar ikkilamchi shoʻrlanishni kechirdi. Toʻqay oʻsimlik dunyosi va dendroflorasi yer osti suvlar sathini 1,0-1,5 metrga pasaytiradi, yaʼni biodrenaj vazifasini yaratadi. 1 gektar oʻrmon 4 ta melioratsiya holati yaxshi maydonni oʻrmini bosadi, yer ustki qismiga zararli tuzlar koʻtarilishini 10-15 marta pasaytiradi. Orolni qurishi oʻrmon ekotizimlarini buzilishiga olib kelidi, yangi ekotizimli hududlar paydo boʻldi.

Hozir bu yerda 5 mln ga yer maydoni ochilib qolgan. Undan 700 ming gektar engil mexanik tarkibli tuproqlidir va ular kuchli deflyatsiyaga uchragan. Bu maydon borgan sari kengaymoqda.

Chunki Orolbo'yida yildagi 365 kunning 300 kunida chang-to'zonli - tuzli shamollar sodir bo'ladi.

Dengizning qurigan tubidan yiliga 100 mln tonna chang, qum ko'tarilmoqda, Orolbo'yidagi har bir gektar ekin dalasiga 520 kg tuz kelib tushmoqda.

Dengizning qurigan tubida yuzaga kelgan chang tuz zarralarini havoga ko'tarilmasligiga faqat daraxtzor - ihotazorlar to'sqinlik qila oladi. Orolbo'yida muvaffaqiyat bilan o'suvchi turlarga - saksovol, cherkez, qandim, yulg'un yarim butalar (boyalich, kavrak, teresken, qarabarak) va o't o'simliklar bor. Hozirgacha o'tkazilgan amaliy ishlar ular ildizlari bilan tuproqni mustahkamlab, 60-70 % ga deflyatsiyani kamaytirishini ko'rsatdi.



3-rasm. Orol dengizining qurigan yerlarida barpo etilgan saksovulzorlar.

1 gektar 8 yoshli saksovulzor 1 yilda 1550 kg karbonad angidrid gazini yutib, 835 kg kislorod ajratadi. Cherkez mos ravishda 1548 kg va 1116 kg ish bajaradi.

Demak o'rmon ihotazorlari Orolning qurigan tubida ekologik holatni tubdan yaxshilaydi. Orolbo'yida buzilgan ekotizimni dengizning qurigan tubida o'rmon meliorativ tadbirlarni o'tkazmasdan yaxshilab bo'lmaydi. O'rmonzorlar cho'llashuv jarayoniga to'sqinlik qiluvchi yagona ishonarli vosita hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi sahrolarning umumiy maydoni 72 mln ga bo'lib, shundan Turkmanistonda 42 mln ga, O'zbekistonda 30 mln ga qum - sahrolar mavjuddir. Bu o'lkan maydon chorvachilik uchun juda muhim (ayniqsa qorako'lchilik uchun) ahamiyatga ega bo'lgan yaylovlar hisoblanadi.

Ushbu hududlarning qiyin sharoitlariga moslashgan psammofit o'simliklar ajoyib ozuqa bazasi hisoblanadi. Markaziy Osiyo o'rmon fondining ma'lumotlariga ko'ra Markaziy Osiyodagi saksovulzorlar 6418,9 ming ga, juzg'un (qandim) zorlar 221,73 ming ga, cherkezzorlar 170,33 ming ga maydonga ega.

Orol dengizining qurigan tubida ihota o'rmonzorlar barpo etish, to'qay o'rmonlarining mahsuldorligini oshirish, yaylovlarni himoyalovchi ihota o'rmonzorlarni barpo etish kabi ishlar bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan ishlar jumlasiga kiradi.

Shu kunga qadar olib borilgan ishlab chiqarish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, urug' sepush orqali barpo etilgan ihota o'rmonlari, ko'chat ekish orqali barpo etilgan o'rmonlarga

qaraganda himoya funksiyalari pastdir. Shu sababli ham ushbu regionda saksovul cherkez, juzg'un ko'chatlarini etishtirib beradigan ko'chatzorlar tashkil etish va Orolbo'yi regionidagi ekologik tanglikni yumshatish uchun ushbu regionda o'rmon melioratsiya tadbirlarni keng qo'llashni taqozo etadi.

Orol dengizining qurigan tubidagi deflyatsiya jarayonini pasaytiradigan, chang va tuzning havoga ko'tarilishini kamaytiradigan, havoni tozalaydigan, undagi kislorodni ko'paytirib karbonat angidrid gazning miqdorini kamaytiradigan omillardan biri - o'rmon melioratsiyasini keskin rivojlantirish zarur, bu esa Orolbo'yi mintaqasida ekologik ahvolni yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 25.01.2022 yildagi 41-son qarori.
2. Ashurmetov O., Kamalov Sh., Xasanov O. Sostoyanie dinamiki ekosistem osushennogo dna yujnoy chasti Aralskogo morya i perspektivnyy ikh optimizatsii. //O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, Toshkent 2001. №3 (5) - S. 95-100.
3. Orolbo'yi va Orol dengizining qurigan tubida o'rmon melioratsiyasining kompleksi to'g'risida tavsiyalar. O'zb. O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent 1997.-41 b.
4. Xanazarov A.A. Lesovosstanovitelnyy potentsial Arelskogo regiona, problemy, puti resheniy //O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, Toshkent № 1. 2000.-99-104.